RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA BUXGALTERIYA HISOB, IQTISODIY TAHLIL VA AUDIT TIZIMLARINI MODERNIZATSIYA QILISH YO'NALISHLARI	1099
To'laganov Ziyovuddin Kamolitdin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING IQTISODIY O'SISHDAGI AHMIYATI	1105
Nematullo Zuvaydullaev	



GLOBAL OZIQ-OVQAT TIZIMIDA AQSH IMPORT-EKSPORT SIYOSATI VA UNING MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI	1109
Matjonov Bekjon Ravshonbekovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI	1115
Axatova Shahnoza	
ЭКОТУРИСТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ И РЕСУРСЫ БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ.....	1119
Каримова Фотима Абдурасуловна	
RAQAMLI IQTISODIYOT: O'ZBEKISTONDA ELEKTRON SAVDO VA TO'LOV TIZIMLARINING RIVOJLANISHI.....	1124
Toxirov Shodibek Jo'ra o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA IPOTEKA KREDITLARINI RIVOJLANTIRISHDA ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1128
Tohirov Muhammad Bobur Tohir o'g'li	
KATTA HAJMLI MA'LUMOTLARDAN OVOZLI XABARLARNI AJRATIB OLIISHDA PARALLEL HISOBLASH ALGORITMLARI VA UNING DASTURIY MAJMUASINI ISHLAB CHIQUISH	1135
Jummayeva Yulduz Achilovna	
MAMLAKATDA NODAVLAT VA NOTIJORAT TASHKIOTLARNI MOLIVAVIY TA'MINLASH MEKANIZMLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	1141
Xusanova Gulsum Baxtiyorovna	
TURISTIK KORXONALARDA BREND KAPITALI TUSHUNCHASI VA UNING TARKIBIY ELEMENTLARI.....	1146
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
IPOTEKA KREDITLARINI MOLIVALASHTIRISHNING ILG'OR XORIY TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	1155
Rasulov Doniyor Dilmurod o'g'li	
RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA SOLIQQA TORTISHNING TARTIBGA SOLISH FUNKSIYASINI TAKOMILLASHTIRISH VA FISKAL SIYOSAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	1161
Sulaymonov Farrux Shuxratovich	
QORAQALPOG'ISTON AGRAR TARMOG'IDA TRANSFORMATSION O'ZGARISHLARNING INSTITUTSIONAL MEKANIZMLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI.....	1166
Mambetnazarov Baxit Bisenbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARINI STRATEGIK BOSHQARISHNING DOLZARBLIGI	1171
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA SHAHARSOZLIK JARAYONLARINING EKOLOGIK OQIBATLARI	1175
Ashurov Abdulaziz Rustamovich, Olimov Anvarjon Atamirzayevich	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATINING RIVOJLANISH DINAMIKASI VA UNDA XORIJIY INVESTITSIALARNING ROLI.....	1182
Nazarova A.N.	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA MOLIVAVIY BOSHQARISHNING AYRIM JIHLATLARI.....	1187
Mamatov O'tkir Botir o'g'li	
JANUBI-G'ARBIY O'ZBEKISTONDA CHORVACHILIK TARMOQLARINI PROGNOZ QILISHNING GEOGRAFIK JIHLATLARI (NAVOIY VILOYATI MISOLIDA)	1191
Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIVASINI BOSHQARISHDA G'AZNACHILIK TIZIMINI RAQAMLASHTIRISHNING MOLIVAVIY SAMARADORLIGI.....	1199
Tangrieva Farida Abduraimovna	
QURILISH MATERIALLARI ISHLAB CHIQARISH KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGIDA INNOVATSION FAOLIYATNING AHAMIYATI	1204
Kurbanova Shaxnoza Yuldashbayevna	
YASHIL MARKETING YONDASHUVI ORQALI KORXONALARDA RESURS SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	1211
Sapayev Axmed Durdibayevich	



АНАЛИЗ И ОПТИМИЗАЦИЯ СЕБЕСТОИМОСТИ ПРОДУКЦИИ И РАСХОДОВ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ	1216
Ташмухамедова Карима Саматовна, Якубова Сабина Алишеровна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA FERMER XO'JALIKLARINI SAMARALI RIVOJLANTIRISH	1222
B.B.Seilbekov	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOT VA EKOLOGIK BARQARORLIK SIYOSATINI SHAKLLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1226
Sadullayev Rasulbek Palvanbayevich	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF FOREIGN TRADE ACTIVITY IN UZBEKISTAN'S REGIONS AND FORECASTING REGIONAL FOREIGN TRADE UNDER WTO AND EAEU ACCESSION (BASED ON THE CASE OF KAZAKHSTAN).....	1230
Sitara Tojiqulova Sobirjon qizi	
BANKLARNING KREDIT RISKLARINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISHNING – COST OF RISK (COR) KO'RSATKICHI TAHLILI	1240
Maxmudov Omon Tuxtayevich	
1-WIRE PROTOKOLI ASOSIDA BIOSIGNALLARNI UZATISH JARAYONI VA MA'LUMOTLAR STRUKTURASINI LOYIHALASH	1245
Mullajonova Fotima Tuychibayevna	
TIJORAT BANKLARI AKTIVLARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBA VA UNING XUSUSIYATLARI	1250
Ibrohimov Davronbek Muhammadi o'g'li	
ОСОБЕННОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РУССКОГО ЯЗЫКА В МЕДИЦИНЕ.....	1257
Хамидходжаева Назира Махкамовна	
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI AYLANMA MABLAG'LARINI BOSHQARISH METODOLOGIYASI.....	1260
Taspanova Ayzada Kenjebayevna	
MAMLAKAT IQTISODIYOTIDA OZIQ-OVQAT SANOATI VA UNING RIVOJLANISH HOLATI	1264
Xusanova Gavhar	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA LTE VA NR TARMOQLARINING BIRGALIKDA ISHLASHINI TA'MINLASH YO'NALISHLARI.....	1270
Toshmatov Salohiddin Zayniddinovich	
THE OPPORTUNITIES OF PERSONALIZING TOURISM SERVICES THROUGH ARTIFICIAL INTELLIGENCE	1276
Olimov Davron Olimovich	
ТРАНСФОРМАЦИЯ РАДИОЖУРНАЛИСТИКИ В ЭПОХУ ЦИФРОВОГО ЭФИРА: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И ГЛОБАЛЬНЫЕ ТЕНДЕНЦИИ	1281
Мамадалиева Шахноза Абдумаликовна	
EFFECTIVE MANAGEMENT OF ADMINISTRATIVE PERSONNEL IN UZBEKISTAN'S PUBLIC UNIVERSITIES.....	1289
Inoyatov Orzubek Saidvaliyevich	
ZAMONAVIY MENEJMENTDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING O'RNI VA SAMARADORLIKKA TA'SIRI.....	1297
Igamberdiyeva Nasiba Babadjanovna	
DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA.....	1304
Rabiyev Akram Homitovich	



DAVLAT QIMMATLI QOG'OZLARI MILLIY MOLIYA BOZORINI BARQARORLASHTIRISH OMILI SIFATIDA

Rabiyev Akram Homitovich

Respublika Valyuta birjasi,
valyuta va pul bozorida savdolar bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. Mazkur ilmiy ishda davlat qimmatli qog'ozlarining mamlakat moliya bozorini barqarorlashtirishdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Davlat qimmatli qog'ozlari - bu davlat tomonidan chiqariladigan, byudjet taqchilligini qoplash va pul-kredit siyosatini amalga oshirish vositasi sifatida xizmat qiluvchi moliyaviy instrumentlar hisoblanadi. Tadqiqotda ushbu qog'ozlarning iqtisodiyotdagi muhim funksiyalari, xususan, likvidlikni ta'minlash, inflyatsiyani boshqarish, investitsiya muhitini yaxshilash hamda moliyaviy barqarorlikni qo'llab-quvvatlashdagi roli yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston moliya bozorida davlat qimmatli qog'ozlari mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari o'rganilib, ularning samaradorligini oshirish uchun huquqiy, institutsional va infratuzilmaviy islohotlarning zarurligi asoslab berilgan. Tahlillar natijasida, davlat qimmatli qog'ozlari nafaqat davlat qarzini boshqarish vositasi, balki milliy moliya bozorini barqarorlashtiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lishi aniqlangan.

Kaliit so'zlar: Davlat qimmatli qog'ozlari, moliya bozori, barqarorlik, pul-kredit siyosati, investitsiya muhiti, davlat qarzi, fiskal siyosat, monetar siyosat, likvidlik, iqtisodiy o'sish, moliyaviy instrumentlar, obligatsiyalar, kapital bozori, inflyatsiya, davlat moliyasi.

Abstract. This research paper examines the role and significance of government securities as a stabilizing factor in the national financial market. Government securities are financial instruments issued by the state to cover budget deficits and implement monetary policy. The study analyzes the key functions of these instruments in the economy, particularly their role in ensuring liquidity, controlling inflation, improving the investment climate, and maintaining financial stability. Furthermore, the paper explores ways to improve the mechanism of government securities circulation in Uzbekistan's financial market. The necessity of legal, institutional, and infrastructural reforms aimed at increasing their efficiency is substantiated. The analysis concludes that government securities serve not only as a tool for managing public debt but also as an essential factor in stabilizing the national financial market.

Key words: Government securities, financial market, stability, monetary policy, investment climate, public debt, fiscal policy, liquidity, economic growth, financial instruments, bonds, capital market, inflation, public finance.

Аннотация. В данной научной работе рассматривается роль и значение государственных ценных бумаг в стабилизации национального финансового рынка. Государственные ценные бумаги представляют собой финансовые инструменты, выпускаемые государством для покрытия дефицита бюджета и реализации денежно-кредитной политики. В исследовании анализируются основные функции этих инструментов в экономике, в частности их роль в обеспечении ликвидности, регулировании инфляции, улучшении инвестиционного климата и поддержании финансовой стабильности. Кроме того, изучаются направления совершенствования механизма обращения государственных ценных бумаг на финансовом рынке Узбекистана. Обоснована необходимость проведения правовых, институциональных и инфраструктурных реформ, направленных на повышение их эффективности. В результате анализа установлено, что государственные ценные бумаги выступают не только инструментом управления государственным долгом, но и важным фактором стабилизации национального финансового рынка.

Ключевые слова: Государственные ценные бумаги, финансовый рынок, стабильность, денежно-кредитная политика, инвестиционный климат, государственный долг, фискальная политика, монетарная политика, ликвидность, экономический рост, финансовые инструменты, облигации, рынок капитала, инфляция, государственные финансы.



KIRISH

Bugungi globallashtirish davrida moliya bozorlari iqtisodiy barqarorlikning eng muhim tayanchlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda¹. Xalqaro miqyosda davlat qimmatli qog'ozlari (DQG) iqtisodiy siyosatning muhim vositasi, milliy valyuta kursini barqarorlashtirish, inflyatsiyani jilovlash va davlat byudjeti taqchilligini qoplashning eng ishonchli mexanizmlaridan biri sifatida keng qo'llanilmoqda². Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, AQSh, Yaponiya, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda davlat obligatsiyalari bozori nafaqat investitsiya oqimini boshqarishda, balki moliyaviy tizimni mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi³. Masalan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (XVJ) va Jahon banki ekspertlari davlat qimmatli qog'ozlari bozorining rivojlanganligi mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi va investitsion jozibadorligi bilan bevosita bog'liqligini ta'kidlashadi⁴.

O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda moliya bozorini chuqurlashtirish, davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash yo'lida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning tashabbusi bilan "Davlat qarzini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" (PQ-6075, 2020-yil 24-sentabr) qarori, shuningdek, "Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" (PQ-4192, 2019-yil 12-fevral) qarorlari mamlakatda davlat qimmatli qog'ozlari bozorini shakllantirish uchun huquqiy asos yaratdi. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan "2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" da ham moliyaviy barqarorlikni ta'minlash, ichki qarz bozorini rivojlantirish va davlat qimmatli qog'ozlarini kengaytirish ustuvor vazifalar qatorida belgilangan⁵.

Shu bilan birga, amaliyotda ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, ichki moliya bozori infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani, qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabning pastligi, institutsional investorlar faolligining sustligi hamda aholi orasida moliyaviy savodxonlik darajasining pastligi ushbu sohaning samaradorligini cheklamoqda⁶. Ushbu muammolarga yechim sifatida davlat tomonidan qimmatli qog'ozlar emissiyasini kengaytirish, ochiq elektron savdo tizimlarini joriy etish, banklar va sug'urta kompaniyalarining ishtirokini rag'batlantirish, shuningdek, aholining investitsion madaniyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Natijada, O'zbekistonda davlat qimmatli qog'ozlari bozori bosqichma-bosqich rivojlanib, milliy moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda tobora muhim o'rin egallamoqda. Ushbu ilmiy maqola aynan davlat qimmatli qog'ozlarining milliy moliya bozorini barqarorlashtirishdagi roli, mavjud muammolar va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini tahlil qilishga bag'ishlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Davlat qimmatli qog'ozlari va ularning moliya bozoridagi barqarorlashtiruvchi rolga oid masalalar xalqaro miqyosda keng tadqiq etilgan. Masalan, Frederic S. Mishkin o'zining mashhur "The Economics of Money, Banking, and Financial Markets" (2020) asarida davlat qimmatli qog'ozlari pul-kredit siyosatini amalga oshirishning eng muhim instrumenti ekanini ta'kidlaydi⁷. Unga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlarda iqtisodiy beqarorlikni kamaytiruvchi "shok absorber" (zarba yutuvchi mexanizm) sifatida ishlaydi⁸. John C. Hull (2018) esa "Options, Futures, and Other Derivatives" asarida davlat obligatsiyalarining moliya tizimi likvidligini ta'minlashdagi roli, xususan, bank tizimi aktivlari sifatini oshirishga qo'shgan hissasini ilmiy jihatdan asoslaydi⁹. OECD (2021) va IMF (2022) hisobotlarida esa davlat qimmatli qog'ozlari bozorining chuqurligi mamlakatning kredit reytingi, investitsion jozibadorligi va makroiqtisodiy barqarorligi o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikni ko'rsatadi¹⁰. Xorijiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat qimmatli qog'ozlari faqat qarz olish vositasi emas, balki milliy iqtisodiy siyosatni muvozanatlash va investorlar ishonchini mustahkamlashning asosiy omilidir. O'zbekiston uchun ham bu tajriba muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi¹¹.

1 World Bank. *Global Financial Stability Report*, IMF, 2023.

2 IMF Policy Paper "Government Securities Market Development", 2022.

3 U.S. Department of the Treasury, Treasury Securities Overview, 2023.

4 World Bank (2022). "Government Debt and Risk Management."

5 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar -"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".

6 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari (2022–2024).

7 Mishkin, F. S. (2020). *The Economics of Money, Banking, and Financial Markets*. Pearson Education.

8 Mishkin, F. S. (2020). o'sha asar.

9 Hull, J. C. (2018). *Options, Futures, and Other Derivatives*. Pearson.

10 IMF (2022). *Government Securities Market Development Policy Paper*.

11 Muallif tahliliy fikri (Mishkin, 2020; IMF, 2022 asosida).



MDH davlatlarida ham davlat qimmatli qog'ozlari masalasi milliy moliya bozorini rivojlantirishning muhim yo'nalishi sifatida o'rganilgan. E.V. Dolgova va A.A. Konovalov (Rossiya, 2020) o'z izlanishlarida Rossiya obligatsiyalar bozori davlat byudjetining muvozanatini ta'minlash va makrobarqarorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutishini ko'rsatgan¹². Shuningdek, N.K. Sharipova (Qozog'iston, 2021) o'z tadqiqotida davlat qimmatli qog'ozlari bozorining institutsional rivojlanishida markaziy banklarning faol roli, ularning foiz siyosati bilan o'zaro bog'liqligini tahlil qilgan¹³. Belaruslik olim A.V. Karpovich (2022) esa davlat qimmatli qog'ozlari milliy kapital bozorining "indikator" sifatida ishlashini, ya'ni ular orqali iqtisodiy tizimdagi investor ishonchi, kapital aylanish tezligi va likvidlik darajasini baholash mumkinligini ta'kidlaydi¹⁴. MDH davlatlari tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat qimmatli qog'ozlari bozori ko'p jihatdan siyosiy barqarorlik, huquqiy infratuzilma va davlatning iqtisodiy nufuzi bilan uzviy bog'liq. O'zbekiston uchun bu tajriba ayniqsa muhim, chunki mamlakat hozirda moliya bozorining institutsional asoslarini shakllantirish bosqichida turibdi¹⁵.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham davlat qimmatli qog'ozlari bozoriga bag'ishlangan ilmiy ishlanmalar soni ortib bormoqda. M. Axmedov va D. Jo'rayev (2022) o'z tadqiqotlarida davlat obligatsiyalarining iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'sirini empirik tahlil qilib, ularning monetar siyosatdagi muvozanatni saqlashdagi ahamiyatini ochib bergan¹⁶. S. Raxmonov (2023) esa O'zbekiston moliya bozorida davlat qimmatli qog'ozlarini chiqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligini, xususan, ochiq savdo platformalari va investorlarga mo'ljallangan raqamli tizimlar joriy etilishini taklif qilgan¹⁷. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Markaziy banki tomonidan tayyorlangan yillik hisobotlarda davlat qimmatli qog'ozlari ichki qarz siyosatining asosiy vositasi sifatida baholangan. Shuningdek, Prezident Sh.M. Mirziyoyevning PF-60 (2022), PQ-6075 (2020) va PQ-4192 (2019) hujjatlarida davlat qarzini boshqarish, moliya bozorlarini rivojlantirish va qimmatli qog'ozlar emissiyasini kengaytirish bo'yicha aniqlan chora-tadbirlar belgilangan¹⁸. O'zbekistonlik olimlar tadqiqotlari asosan iqtisodiy amaliyot bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular milliy moliya tizimining barqarorligini ta'minlashda davlat qimmatli qog'ozlarining real ahamiyatini ko'rsatib beradi. Biroq, bu yo'nalishda chuqur empirik modellar, xalqaro tajriba asosida solishtirma tahlillar va investitsion xulqni o'rganish borasida hali katta ilmiy salohiyat mavjud.

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki, davlat qimmatli qog'ozlari moliyaviy barqarorlikning ajralmas qismi bo'lib, ularning samarali ishlashi uchun huquqiy, institutsional va texnologik infratuzilma muhim ahamiyatga ega. Xorijiy olimlar asosan nazariy va tizimli yondashuvlarni ishlab chiqqan bo'lsa, MDH davlatlari amaliy mexanizmlarni rivojlantirishga e'tibor qaratgan, O'zbekistonda esa endilikda bu tizimni mahalliy sharoitga moslashtirish jarayoni ketmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda davlat qimmatli qog'ozlarining milliy moliya bozorini barqarorlashtirishdagi o'rni tizimli va tahliliy yondashuv asosida o'rganildi. Ishda nazariy, statistik va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilib, O'zbekiston moliya bozori holati xorijiy tajriba bilan solishtirildi. Ma'lumotlar manbasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Markaziy bank, Jahon banki va XVJ hisobotlari, shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, davlat qimmatli qog'ozlarining moliyaviy barqarorlikni ta'minlashdagi iqtisodiy mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasida davlat qimmatli qog'ozlari bozori so'nggi yillarda sezilarli rivojlanmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatning umumiy davlat qarzi 34,9 mlrd AQSh dollarini, shundan ichki qarz esa 5,3 mlrd dollarni tashkil etdi. Bu ichki moliya bozorining faollashayotganidan dalolat beradi va milliy valyutadagi qimmatli qog'ozlar emissiyasi hajmi ortayotganini ko'rsatadi.

12 Dolgova, E. V., & Konovalov, A. A. (2020). *Finansovyye rynki i gosudarstvennyye obligatsii v Rossii*. Moskva: Finansy i kredit.

13 Sharipova, N. K. (2021). *Razvitiye rynka gosudarstvennykh tsennyykh bumag v Kazakhstane*. Almaty: Eurasian University.

14 Karpovich, A. V. (2022). *Gosudarstvennyy dolg i finansovaya stabilnost' Belarusi*. Minsk: BGU.

15 Muallif tahlili (Dolgova, 2020; Karpovich, 2022 asosida).

16 Axmedov, M., & Jo'rayev, D. (2022). O'zbekiston iqtisodiyotida davlat obligatsiyalarining roli. Tashkent: TMI ilmiy jurnali.

17 Raxmonov, S. (2023). Moliyaviy bozorni rivojlantirishda davlat obligatsiyalarining ahamiyati. Tashkent: Moliyachi jurnali.

18 PF-60-son Farmon, 2022-yil 28-yanvar -"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi", PQ-6075-son Qaror, 2020-yil 24-sentabr -"Davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida", PQ-4192-son Qaror, 2019-yil 12-fevral -"Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"


1-jadval. O'zbekistonning davlat va ichki qarzi (mlrd AQSh dollari)¹⁹:

Yil	Umumiy davlat qarzi	Ichki davlat qarzi
2022	29.2	3.3
2023	34.9	5.3

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasining umumiy davlat qarzi 29,2 mlrd AQSh dollaridan 34,9 mlrd dollarga, ya'ni 19,5 foizga oshgan. Shu davrda ichki davlat qarzi esa 3,3 mlrd dollardan 5,3 mlrd dollarga (taxminan 60 foizga) ko'tarilgan.

Ushbu o'sish, bir tomondan, davlatning ichki moliyalashtirish imkoniyatlari kengayayotganini, ikkinchi tomondan esa qimmatli qog'ozlar bozorining faollashayotganini anglatadi. Ichki qarzning ulushi ortib borayotgani tashqi moliyaviy manbalarga qaramlikni kamaytiradi hamda milliy valyutadagi obligatsiyalar emissiyasi hajmining barqaror o'sishini ta'minlaydi.

Bundan tashqari, ichki qarz bozorining kengayishi moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, inflyatsion bosimlarni yumshatish, va byudjet taqchilligini milliy manbalar hisobidan qoplash imkonini beradi. Mazkur tendensiya davlat qimmatli qog'ozlarining milliy moliya bozorida rolini kuchaytirganini ham ko'rsatadi.

1-rasm. 2022–2023-yillardagi umumiy va ichki davlat qarzi ma'lumotlar²⁰

Bu ko'rsatkichlar davlatning ichki moliyaviy imkoniyatlari kengayayotganini, qimmatli qog'ozlar emissiyasi hajmi ortib borayotganini hamda moliya bozorining chuqurlashayotganini anglatadi. Ichki qarz ulushining o'sishi tashqi qarzga qaramlikni kamaytirib, milliy moliya tizimining mustaqilligini mustahkamlaydi.

Ichki davlat qarzining tez o'sishi shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlari bozorida likvidlikning ortishi, investitsion muhitning faollashuvi va pul-kredit siyosati transmissiya mexanizmining samarali ishlashiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

2-jadval. O'zbekiston YAIM o'sish prognozi (foizda)²¹:

Yil	YAIM o'sish (%)
2024	5.4
2025	5.5

Jadval ma'lumotlariga ko'ra, 2024–2025-yillarda O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsuloti (YAIM) o'sish sur'atlari barqaror tendensiyada davom etishi kutilmoqda. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) prognozlariga muvofiq, YAIM 2024-yilda 5,4 foiz, 2025-yilda esa 5,5 foiz atrofida o'sadi.

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, 2023-yil hisobot.

²⁰ "Davlat qarzi to'g'risidagi yillik hisobot – 2023-yil".


²¹ Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF), 2024-yil hisobot.



Bu raqamlar mamlakat iqtisodiyotining post-pandemiya davrida tiklanish jarayonini yakunlab, barqaror o'sish bosqichiga o'tayotganini ko'rsatadi. O'sishning asosiy drayverlari sifatida:

- sanoat va xizmatlar sektorida investitsiya faolligi,
- eksport hajmining oshishi,
- hamda davlat qimmatli qog'ozlari orqali byudjetni muvozanatlash va likvidlikni ta'minlash omillari e'tirof etilmoqda.

Shuningdek, davlat qimmatli qog'ozlari bozorining rivojlanishi makroiqtisodiy siyosatning muvozanatlashuviga, foiz stavkalarining barqarorlashishiga va umumiy iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda.



2-rasm. O'zbekiston YAIM o'sish prognozlari (IMF, 2024–2025)²²:

Ichki talabning tiklanishi, eksport salohiyatining ortishi, hamda davlat investitsiyalarining kengayishi hisobiga barqaror rivojlanayotganini anglatadi.

YAIM o'sish sur'atlarining yuqori darajada saqlanishida davlat qimmatli qog'ozlari bozorining faol ishlashi ham muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda. Ushbu instrumentlar orqali byudjet taqchilligini qoplash, likvidlikni boshqarish va pul-kredit siyosati mexanizmini kuchaytirish imkoniyatlari yaratilmoqda.

Shuningdek, o'sish prognozlari makroiqtisodiy siyosatning muvozanatlashganini, moliyaviy barqarorlik darajasining oshganini ham tasdiqlaydi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, davlat qimmatli qog'ozlari hajmi bilan moliyaviy barqarorlik indeksi o'rtasida ijobiy bog'liqlik mavjud. Emissiya hajmi va muddat tuzilmasi kengaygan sari moliya bozori chuqurlashadi, foiz stavkalari barqarorlashadi hamda iqtisodiy o'sish sur'atlari yaxshilanadi. Davlat qimmatli qog'ozlari orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun institutsional islohotlar, investorlar uchun qulay muhit va shaffoflik darajasini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3-jadval. O'zbekiston moliyaviy bozorining likvidlik darajasi (%)²³:

Yil	Moliyaviy bozor likvidligi (%)
2021	28.5
2022	30.1
2023	33.4
2024	35.2


Jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy bozor likvidligi yildan-yilga oshib bormoqda. Agar 2021-yilda bu ko'rsatkich 28,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib 35,2 foizga yetgan. Ushbu o'sish dinamikasi mamlakat moliya tizimining ichki resurslari kengayib borayotganini, kapital aylanish tezligining ortayotganini va bank tizimining iqtisodiyotdagi faol rolini ko'rsatadi.

²² "World Economic Outlook Database - October 2024" hisobot ma'lumotlari asosida.

²³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki., "Moliyaviy barqarorlik sharhi – 2023-yil 4-chorak" hisobot ma'lumotlari.



Likvidlik darajasining barqaror o'sishi, avvalo, davlat qimmatli qog'ozlari bozorining rivojlanishi, pul-kredit siyosati mexanizmlarining takomillashuvi va moliya bozorida shaffoflik darajasining oshishi bilan izohlanadi. 2023–2024-yillarda Moliya vazirligi tomonidan o'tkazilgan ochiq auksionlar va Markaziy bank siyosati likvidlikni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, bu jarayon iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etgan.



3-rasm. O'zbekiston moliyaviy bozor likvidligi dinamikasi (2021–2024)²⁴:

Moliyaviy likvidlikning bunday o'sish tendensiyasi davlat qimmatli qog'ozlari orqali iqtisodiyotdagi ortiqcha pul massasi va kredit faolligini samarali boshqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, u investitsiya muhitini yaxshilab, milliy moliya bozorining barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, moliyaviy bozor likvidligining oshishi davlat qimmatli qog'ozlari bozorining faoliyati bilan bevosita bog'liq. Likvidlik darajasining 2021-yildagi 28,5 foizdan 2023-yilda 33,4 foizga oshgani moliyaviy muhitning barqarorlashayotganini ko'rsatadi. Bu holat davlat obligatsiyalari bozorining iqtisodiy o'sish va investitsiya faolligini qo'llab-quvvatlashdagi rolini tasdiqlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida aniqlanishicha, O'zbekiston Respublikasida davlat qimmatli qog'ozlari bozori so'nggi yillarda faol rivojlanib, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim instrumentga aylanmoqda. 2022–2023-yillarda umumiy davlat qarzi hajmi oshgan bo'lsa-da, ichki qarz ulushining keskin ortishi mamlakatning moliyaviy mustaqilligini mustahkamladi. Bu esa, tashqi qarzga qaramlikni kamaytirish va milliy moliya tizimining ichki resurslari hisobiga barqarorlikni ta'minlash imkonini bermoqda.

Shuningdek, YAIM o'sish sur'atlarining 2024–2025-yillarda 5,4–5,5 foiz atrofida barqarorlashishi mamlakat iqtisodiyotida davlat qimmatli qog'ozlarining iqtisodiy o'sish drayveri sifatidagi rolini tasdiqlaydi. Moliyaviy bozor likvidligining 2021-yildan 2024-yilgacha 28,5 foizdan 35,2 foizga oshgani esa ichki moliya bozori imkoniyatlarining kengayganini va kapital aylanish tezligining ortganini ko'rsatadi.

Tahlillar quyidagi takliflarga olib keladi:

1. Davlat qimmatli qog'ozlari emissiyasi strategiyasini uzoq muddatli rejalashtirish orqali bozor ishtirokchilari uchun prognoz qilinadigan va barqaror sharoit yaratish.
2. Auksion mexanizmlarini raqamlashtirish va real vaqt rejimida ma'lumotlarni e'lon qilish orqali investorlar ishonchini yanada oshirish.
3. Investorlarga mo'ljallangan soliq imtiyozlari va rag'batlar tizimini joriy etish orqali ichki bozorda talabni kengaytirish.

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, "Davlat qarzi va ichki moliya bozori faoliyati to'g'risida yillik tahliliy ma'lumotnoma – 2024", Muallif tomonidan rasmiy statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilingan.



4. Moliyaviy barqarorlik indikatorlarini shakllantirish va ularni tahlil qilish tizimini takomillashtirish, bu orqali davlat qimmatli qog'ozlari bozorining makroiqtisodiy siyosatga ta'sirini samarali baholash.

5. Xalqaro tajribani o'rganish va MDH mamlakatlari bilan hamkorlikni kuchaytirish, jumladan, xalqaro investorlarni jalb etish mexanizmlarini ishlab chiqish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 28-yanvar - "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-6075-son Qarori, 2020-yil 24-sentabr - "Davlat qarzini boshqarish tizimini takomillashtirish to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4192-son Qarori, 2019-yil 12-fevral - "Moliyaviy bozorlarni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida".
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi hisobotlari (2022-2024).
5. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, "Davlat qarzi to'g'risidagi yillik hisobot -2023-yil".
6. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, "Davlat qarzi va ichki moliya bozori faoliyati to'g'risida yillik tahliliy ma'lumotnoma -2024".
7. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, "Moliyaviy barqarorlik sharhi -2023-yil 4-chorak".
8. Dolgova, E. V., & Konovalov, A. A. (2020). Finansovyye rynki i gosudarstvennyye obligatsii v Rossii. Moskva: Finansy i kredit.
9. Sharipova, N. K. (2021). Razvitiye rynka gosudarstvennykh tsennykh bumag v Kazakhstane. Almaty: Eurasian University.
10. Karpovich, A. V. (2022). Gosudarstvennyy dolg i finansovaya stabilnost' Belarusi. Minsk: BGU.
11. Mishkin, F. S. (2020). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education.
12. Hull, J. C. (2018). Options, Futures, and Other Derivatives. Pearson Education.
13. International Monetary Fund (IMF) (2022). Government Securities Market Development Policy Paper.
14. International Monetary Fund (IMF) (2024). World Economic Outlook Database - October 2024.
15. World Bank (2022). Government Debt and Risk Management.
16. World Bank (2023). Global Financial Stability Report.
17. U.S. Department of the Treasury (2023). Treasury Securities Overview.
18. IMF Policy Paper (2022). Government Securities Market Development.
19. Axmedov, M., & Jo'rayev, D. (2022). O'zbekiston iqtisodiyotida davlat obligatsiyalarining roli. Tashkent: TMI ilmiy jurnali.
20. Raxmonov, S. (2023). Moliyaviy bozorni rivojlantirishda davlat obligatsiyalarining ahamiyati. Tashkent: Moliyachi jurnali.
21. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi rasmiy sayti - www.mf.uz
22. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki - www.cbu.uz
23. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) - www.imf.org
24. Jahon banki - www.worldbank.org
25. U.S. Department of the Treasury - home.treasury.gov



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
